Mannonov Anvar Abduvakil o'g'li - mustaqil izlanuvchi
Mamadiyarova Dilfuza Umirzaqovna - Ph.D., dosent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)

SON SUYAGIDA RIVOJLANGAN SOXTA BO'G'IM SOHASI QON TOMIRLARIDA BO'LADIGAN PATOMORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Annotasiya. *Soxta bo'g'imi tufayli jarrohllik amaliyoti tufayli olib tashlangan 21 nafar bemorlardan son suyagi soxta bo'g'imi sohasidan olingan jarrohlik materiallari patomorfologik tekshiruvdan o'tkazilgan. Aniqlanganki, son suyagi soxta bo'g'imlarnining hosil bo'lishida nafaqat suyakni qon bilan ta'minlaydigan qon tomirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, posttravmatik sinishlardan so'ng soxta bo'g'imlarni shakllanishga olib keluvchi muhim omillardan biri bu suyaklar to'qimalardagi gemodinamikaning buzilisharning uzoq vaqt saqlanib qolishidir. Bu esa shukastlanishlardan so'ng davolash muolajalarinin olib borishda va son suyagi soxta bo'g'iminin rivojlanishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarda alohida inobqtga olinishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Soxta bo'g'im, son suyagi, arteriya, suyak usti pardasi*

Маннонов Анвар Абдувакил угли - соискатель
Мамадиярова Дилфуза Умирзаковна - Ph.D., доцент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В КРОВЕНОСНЫХ СОСУДАХ ОБЛАСТИ ЛОЖНОГО СУСТАВА, РАЗВИВАЮЩИЕСЯ У БЕДРЕННОЙ КОСТИ

Аннотация. *Патоморфологическому исследованию подвергнуты операционные материалы из области бедренной кости 21 пациента, перенесших хирургическое удаление по поводу ложного сустава. Установлено, что в формировании ложных бедренных суставов важную роль играют не только кровеносные сосуды, снабжающие кость кровью. Одним из важных факторов, приводящих к образованию псевдосуставов, особенно после посттравматических переломов, является длительное сохранение гемодинамических нарушений в костной ткани. Подчеркивается, что это необходимо учитывать при проведении лечебных процедур после травм и при проведении мероприятий, направленных на профилактику развития ложного сустава бедренной кости.*

Ключевые слова: *ложный сустав, бедренная кость, артерия, надкостница*

Mannonov Anvar Abduvakil ugli - independent researcher
Mamadiyarova Dilfuza Umirzakovna - Ph.D., associate professor
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

PATHOMORPHOLOGICAL CHANGES IN THE BLOOD VESSELS OF THE AREA OF THE FALSE JOINT DEVELOPING AT THE FEMORUMA

Abstract. *Pathomorphological examination of surgical materials from the area of the femoral pseudoarthrosis was performed in 21 patients who underwent surgical removal due to pseudoarthrosis. It was found that not only the blood vessels supplying the bone with blood play an important role in the formation of pseudoarthrosis. One of the important factors leading to the formation of pseudoarthrosis, especially after post-traumatic fractures, is the long-term persistence of hemodynamic disorders in bone tissues. It is emphasized that this should be taken into account when conducting treatment procedures after injuries and in measures aimed at preventing the development of pseudoarthrosis.*

Keywords: *False joint, femur, artery, periosteum, bone marrow*


Mavzuning dolzarbligi. Shikastlanishlar tarkibida son suyagi bo'g'imdan tashqari yoriqlari oyoq-qo'llarning uzun suyaklari sinishi umumiy sonining 10,4 dan 30,8 foizini tashkil qiladi va psevdoartrozning shakllanishiga olib keladigan shikastlanishlar orasida ikkinchi o'rinni egallaydi [6,8]. Shikastlanishdan keyingi regeneratsiya jarayoni buzilgan holtlarni davolash zamonaviy travmatologiya va ortopediyaning eng murakkab muammolaridan biridir. So'nggi o'n yillikda jarrohlik faolligining o'sishi sinishning birikmasligi muammosini hal qilmadi. Kasallikning umumiy strukturasida to'rtinchi o'rinni egallagan jarohatlarning yuqori darajasi tufayli uning dolzarbligi ortib bormoqda [1,7]. Naysimon suyaklarning psevdoartrozi rivojlangan odamlarda doimiy mehnat qobiliyatini yo'qotish yuqori darajada saqlanib qolmoqda va jarohatlar tufayli umumiy nogironlikning 7,8-33,1% ni tashkil qiladi [5]. Butun dunyoda jarrohlik amaliyotini takomillashtirilishiga, osteosintezning texnik ta'minoti yaxshilanganiga, zamonaviy farmakologik vositalardan foydalanishga qaramasdan, turli mualliflarning fikriga ko'ra, shikastlanishlardan so'ng naysimon suyaklarda soxta

bo'g'imlar shakllanishi 10 % dan 30 % gacha uchramoqda [2,3,5,6].

Tadqiqotning maqsadi: Turli yoshdagi bemorlarda rivojlangan soxta bo'g'im sohasi suyaklarining qon tomirlarida boladigan patomorfologik o'zgarishlarini aniqlash.


Material va usullari: Tadqiqotning material va usullari: Samaraqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasi patologik anatomiya bo'limida soxta bo'g'imi tufayli jarrohllik amaliyoti tufayli olib tashlangan turli yoshdagi 21 nafar bemorlardan son suyagi soxta bo'g'im sohasidan olingan jarrohlik materiallari, makroskopik, mikroskopik tekshiruvdan o'tkazildi. Suyak to'qimasi 10 % azot kislatasida dekalsinatsiya qilindi va ulardan parafinli bloklar tayyorlandi. Ulardan 3-6 mkn qalinlikdagi olingan kesmalar gemotoksilin-eozin usulida bo'yalgan mikropreparatlarning morfologik tahlili o'tkazildi.

Natijalar va xulosalar. Suyak usti pardasi qon tomirlari mushak va fasial areteriyalarning tarmoqlaridan ajralib chiqadigan qon tomirlrning tarmoqlari yordamida uzviy qon bilan ta'minlanib turadi. Qon tomirlarining tarmoqlari suyakning ustki pardasida chigallarni hosil qilib, ulardan ajralib chiqadigan maqyda tarmoqlari suyak kanalchalari orqali suyakning ichiga kirib boradi. Ularning ayrim shoxlari suyak ko'migi sohalarigacha etib borganligi aniqlanadi. Son suyagi soxta bo'g'imlai joylashgan soha suyak usti pardasi va suyak ichi qon tomirlar devorida sklerotik jarayonlar rivojlanganligi qayd etiladi (1, -rasm).




1-rasm. **Son suyagi suyak usti pardasi qon tomirlar devoridagi sklerotik jarayon. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Son suyagi soxta bo'g'im sohalaridadagi qon tomirlarida revaskulirizasiya jarayoni rivojlangan bo'lib (2-rasm), ularning ishemiya holatida ekanligi kuzatiladi. Mazkur sohalarda joylashgan xondroblastlarida gidropik distofiya holati aniqlanadi. Ular bo'shliqlar ko'rinishida ko'ruv maydonida ko'zga tashlanadi (3-rasm).



2-rasm. **Suyak usti pardasi qon tomirlar devoridagi sklerotik revaskulirizasiya jarayoni. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**



3-rasm. **Son suyagi soxta bo‘g‘imi sohasida tog‘ay hujayralari (Xondrositlar). Gematoksilin-eozinda bo‘yalgan. Ob.40, ok.10**

Ularning atrofida va oraliqlarida fibroz to’qima hujayralarining proliferatsiyasi qayd etiladi. Shuningdek, suyak qadog’i hosil bo’lgan sohalarda gipervaskulirizasiya holati qayd etiladi.

Shunday qilib, son suyagi soxta bo’g’imlarning hosil bo’lishida nafaqat suyakni qon bilan ta’minlaydigan qon tomirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, posttravmatik sinishlardan so’ng soxta bo’g’imlarni shakllanishga olib keluvchi muhim omillardan biri bu suyaklar to’qimalardagi gemodinamikaning buzilisharning uzoq vaqt saqlanib qolishidir. Bu esa shukastlanishlardan so’ng davolash muolajalarinin olib borishda va son suyagi soxta bo’g’iminin rivojlanishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarda alohida inobqtga olinishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Анализ состояния травматолого-ортопедической помощи населению Украины 2008-2009 гг.: справочник /Г.В. Гайко, С.И. Герасименко, А.В. Калашников, В.П. Полишко. - Киев: КомПолис, 2010. - 164 с.

2. Арсеньев, И.Г. Экспериментально-морфологическое обоснование клинического применения деградируемых биоимплантатов в комплексном лечении переломов и ложных суставов длинных трубчатых костей: Дис… канд. мед. наук: 14.00.22 /И.Г. Арсеньев. - М., 2007. - 137.с..

3. Кауц Олег Андреевич, Барабаш Анатолий Петрович, Барабаш Юрий Анатольевич, Гражданов Константин Александрович, and Русанов Андрей Геннадьевич. "Анализ результатов хирургического лечения околосуставных переломовдистального отдела бедренной кости и их последствий" Гений ортопедии, vol. 24, no. 1, 20 18, pp. 6-12.

4. Особенности лечения ложных суставов длинных трубчатых костей /В.1. Шевчук, Ю.О. Безсмертний, В.Ф. Тетерук, О.А. Вере-мий //Сборник научных трудов XV съезда ортопедов-травматологов Украины. - Д.: Лира, 2010. - С. 257.

5. Накостный компрессионно-динамический остеосинтез в лечении диафизарных переломов бедренной кости /В.И. Зоря, С.В. Новиков, Н.Н. Карчебный [и др.] //Хирургия. - 2009. - № 5. - С. 52-57.

6. Склянчук, Е.Д. Стимуляция остеогенеза в комплексном лечении посттравматических нарушений костной регенерации: Дис.... д-ра мед. наук: 14.00.22 /Е.Д. Склянчук. - М., 2009. - 260 с.

7. Состояние и перспективы развития ортопедотравматологической помощи в Украине /Г.В. Гайко, А.В. Калашников, С.М. Бе-синский [и др.]. - Киев: КомПолис, 2001. - 184 с.

8. Rockwood and Green's Fractures in adults sixth adition. - Philadelphia USA, 2006. - 2337 p.